



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 1

2026

OT SO‘Z TURKUMIGA OID ILK QARASHLAR

Alimova Sarvinoz Sobirovna
Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti stajyor o‘qituvchisi
sarvi2211@gmail.ru
orcid:0009-0003-8485-9081

Annotatsiya.

So‘zlarni turkumlarga ajratish masalasi jahon tilshunosligida uzoq yillar davomida o‘z dolzarbligini saqlab kelayotgan muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu masala barcha tillar grammatikasi uchun ustuvor bo‘lib, implisit va eksplisit yondashuvlar asosida amaliy hamda nazariy jihatdan tadqiq etilgan. Mazkur yondashuvlar doirasida ot so‘z turkumiga oid qarashlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ot turkumiga mansub so‘zlarning o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishi muayyan tarixiy taraqqiyot bosqichlariga ega bo‘lib, bu borada ko‘plab ilmiy tadqiqotlar va izlanishlar olib borilgan. Mazkur maqolada ot so‘z turkumiga oid dastlabki qarashlar, ularning shakllanish jarayoni hamda tilshunoslikdagi o‘rni yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: ism, atoqli va turdosh otlar, lug‘at, son, jins, kelishik kategoriyalari

ПЕРВОНАЧАЛЬНЫЕ ВЗГЛЯДЫ НА ЧАСТЬ РЕЧИ «СУЩЕСТВИТЕЛЬНОЕ»

Алимова Сарвиноз Собировна
Самаркандский государственный медицинский университет, стажёр-преподаватель

Аннотация.

Проблема классификации слов по частям речи на протяжении многих лет сохраняет актуальность в мировом языкознании и относится к числу приоритетных вопросов грамматики всех языков. Данная проблема исследовалась как в теоретическом, так и в практическом аспектах на основе имплицитных и эксплицитных подходов. В рамках этих подходов особое значение приобретают представления о части речи «существительное». Изучение слов, относящихся к разряду существительных, в узбекском языкознании имеет определённые этапы исторического развития, и в этом направлении проведено множество научных исследований. В статье освещаются первоначальные взгляды на часть речи «существительное», процесс их формирования, а также их место в лингвистике.

Ключевые слова: имя, собственные и нарицательные существительные, словарь, категории числа, рода, падежа.

EARLY VIEWS ON THE NOUN AS A PART OF SPEECH

Alimova Sarvinoz Sobirovna
Samarkand State Medical University, trainee teacher

Abstract.

The issue of classifying words into parts of speech has long remained one of the most relevant problems in world linguistics and is considered a priority for the grammar of all languages. This issue has been investigated both theoretically and practically on the basis of implicit and explicit approaches. Within these approaches, views on the noun as a part of speech are of particular importance. The study of noun words in Uzbek linguistics has gone through certain historical stages of development, and numerous scholarly works have been conducted

in this area. This article highlights the earliest views on the noun as a part of speech, the process of their formation, and their place in linguistics.

Keywords: noun, proper and common nouns, dictionary, categories of number, gender, case.

Kirish. Ot soʻz turkumiga oid qarashlar ilk oʻrta asrlar olim va mutafakkirlari tomonidan tadqiq qilina boshlanib, eʼtiborli jihati ularning aksariyati bugungi kunda ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan. Keyingi asrlarda tilshunoslik maydoniga yirik asarlar keladiki, ular butun Oʻrta Osiyo ahli uchun ustuvor manbalarga aylanadi. Oʻrta asrlarning buyuk qomusiy olimlaridan Abu Nasr Forobiy mantiq ilmiga oid sir-asrorlarni yoritir ekan, arab grammatikasi uchun maʼlum boʻlgan ism, feʼl va yuklama atamalarini shu fan nuqtayi nazaridan tushuntirishga harakat qiladi. Uning fikriga koʻra ismlar va feʼllar alohida mavjud boʻlmay, ular birgalikda qoʻllanganidagina bir butun maʼno kelib chiqadi deb taʼkidlaydi. Yaʼni ism oʻzi alohida olinganda fikr bildiruvchi oʻzida hech qanday zamonga moslikni anglatmaydi. Masalan, hayvon, inson, Zayd kabi. Lekin Zayd yurmoqda yoki Zayd yuradi tarzida feʼllar bilan qoʻllanganida gaplar shakllanadi va bir butun sifatida zamonda moslashgan hodisa sifatida namoyon boʻladi [2,223-bet].

Forobiy soʻz maʼnolarini ham tasnif etadi. Uning fikricha, soʻz maʼnosi ikki turli boʻladi: sodda va murakkab. Odam, hayvon singari olamdagi bir turdagi narsa va hodisalarni atash vazifasini bajaruvchi alohida soʻzlar sodda; narsa va uning belgisini bildiruvchi Bu odam, hayvon kabi ifodalar esa murakkab sanaladi. Forobiy atoqli va turdosh otlarni ham farqlaydi. U sodda maʼnoli soʻzlarni ikkiga boʻladi: 1) atoqli otlar. Masalan, Zayd, Amr kabi; 2) tur va jinsni koʻrsatadigan soʻzlar. Masalan, odam, hayvon, ot kabi.

Forobiy, shuningdek, “Fozil odamlar shahri” asarida jismlarning suvrati yaʼni koʻrinish xususiyatiga ega boʻlishlik nuqtayi nazaridan substantivatsiya, subyekt va modda nomlari haqida fikr bildiradiki, bunda biz aniq va mavhum otlar tushunchalariga oid qarashlarni koʻramiz. Mahmud Qoshgʻariy tomonidan yozilgan “Devonu lugʻotit turk” nafaqat lugʻat, balki turkiy tillardagi ismlarning batafsil tavsifini oʻz ichiga olgan qimmatli grammatik manba sifatida ot soʻz turkumi haqidagi maʼlumolarni ham oʻz ichiga olgan. “Devon”da tasvirlangan otlar bilan bogʻliq asosiy grammatik jihatlar – son, jins, kelishiklar kategoriyalari hamda ushbu turkumdagi soʻzlarning yasallishiga oid qaydlarni qoldiradi. Garchi zamonaviy turkiy tillarda jins toifasi grammatik jihatdan zohirlanmagan boʻlsa-da, “Devon”da Mahmud Qoshgʻariy jinsni bildiruvchi baʼzi soʻzlarni tasvirlaydi. Masalan, hayvonlar va odamlarda erkak va ayol jinsini koʻrsatuvchi uchun soʻzlar turlicha, yaʼni er soʻzi erkak maʼnosida, ogʻul soʻzi oʻgʻil farzand maʼnosida qoʻllangan:

“Algʻil oʻgʻut mendin, ogʻul yordam tila,

Bojda ulugʻ bilga boʻlub, bilgin tila.

(Oʻgʻil mendan nasihat ol, fazilat tila,

El-yurt orasida ulugʻ olim boʻl, ilmingni tarqat) [3,80-bet]

Shuningdek, ulich – sevimli farzand maʼnosida bolalarni sevish, erkalatish uchun ishlatiluvchi soʻz, ulichim – esa oʻgʻilcham maʼnosida qoʻllangani aytiladi. Yosh qizlarga nisbatan qiz soʻzidan tashqari oʻkach, anach soʻzlari ham qoʻllanilib, oʻz singlisidek tuyuluvchi yosh qiz maʼnosini anglatgan. Uma – soʻzi esa tubut qabilasi tilida ona maʼnosida keladi. Keltirilgan misollardan koʻrinib turibdiki turkiy tilning ilk shakllanish davrlarida ham kishilarning jinsiga qarab murojaat qilinishda ishlatiladigan otlar talaygina boʻlgan.

“Devon”da otlardagi son kategoriyasining ifodalanishi qisman yoritilgan. Jumladan, er – erkak soʻzi koʻplikda eran shaklida ishlatilishi hamda bu holning kamdan-kam uchrashi va qoidaga xilofligini aytib oʻtadi. Chunki koʻplik qoʻshimchasi -lar/-lār tarzidadir, degan fikri

bilan kifoyalanadi. Bunga sabab olim bu haqidagi qarashlarini o'zining yana bir asarida keltirilganini o'zi ta'kidlab o'tadi: "Birlik, ko'plik, oshirish, chag'ishtirish, kichraytirish, kelishiklar masalasi va boshqalar ham zikr qilinmadi. Chunki biz ularni "Javohirun nahvi fi lug'atit turk" ("Turkiy tillarning lug'atiga oid gavharlar") ismli ayrim asarimizda berdik. Nahvga oid qoidalar u asardan qaralishi kerak". Bu asar esa bizgacha yetib kelmagani ma'lum.

Otlarning yasalishi xususida ularning tub va yasama bo'lishi, yasama otlar asosan fe'l oxiriga o'n ikki harfdan birini qo'shish bilan yasalishini keltirib o'tiladi. Masalan, olim, dono, aqlli ma'nolarida keluvchi bilga so'zi bildi fe'liga alif qo'shilib, taom ma'nosidagi uva so'zi burdatlatdi, uvadi ma'noli uvadi fe'lidan, kokil ma'nosidagi kesma so'zi esa kesdi fe'lidan yasalgani kabi misollar keltirib, har bir harf orqali yasalgan otlar sanab o'tiladi. Yana bu borada narsa-buyum otlari, qurol otlari, zamon va makon otlarining yasalishi misollar bilan yoritiladi. Muallifning otlarni guruhlashtirishga oid qarashlaridan uning turdoah va atoqli otlar haqidagi ma'lum qaydlarini ham anglash mumkin.

O'zbek adabiy tilining shakllanishida ulkan hissa qo'shgan mutafakkir Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida uning morfologiyaga oid qarashlari ifodalangan. Asarda u o'sha davrda keng iste'molda bo'lgan, ijod ahli uchun ustuvor til sifatida ahamiyat kasb etgan forsiy tilni turkiy til bilan solishtirar ekan, bu tilning boy imkoniyatlarini, leksik-morfologik xususiyatlarini ko'rsatib beradi.

Ma'lumki, Navoiy yashab, ijod qilgan davr uchun muhimlik kasb etgan arab grammatikasi asosida so'z turkumlarini uchga – ismlar, fe'llar va harakat (yordamchi)larga ajratadi. Shu bilan birga u turkiy tilda mavjud 100 ta fe'lni hamda 100 ta ism (ot)larni tahlil qilgan holda o'z asarini yaratadi. Xususan, ot so'z turkumining leksik-semantik xususiyatlari hamda yasalishi borasida qaydlar qoldiriladi. Turkiy tildagi otlarning shakldoshlik xusiyatiga to'xtalib, tajnis va iyhom san'atlarini ifodalab go'zal baytlar yaratish mumkinligi ta'kidlanadi. Masalan, ot so'zining ism, hayvon, buyruq ma'nosidagi fe'l ma'nolarida kelishini bir tuyuq orqali ko'rsatib beradi:

"Chun pariya hursur oting, begim,
Sur'at ichra dev erur oting, begim,
Har xadangikim, ulus andin qochar,
Notavon jonim sari oting, begim." [4,112-bet]

Xuddi shun tarzda muallif it, sog'in, tuz, ko'k, ter va to'r so'zlarini ham ma'nolarini izohlab o'tadi. Asarda o'sha davrda qo'llangan qarindoshlik otlariga ham izoh berib o'tilgan. Agar forsiy tilida katta va kichik yoshdagi qarindoshlarning ikkalasiga nisbatan "birodar" deyishsa, turkiylar katta yoshdagilari uchun "og'a" va kichiklari uchun "ini" so'zlarini; katta va kichik yoshdagi qiz qarindoshlariga "xoxar" so'zi forsiylarda, turkiylarda yoshi kattalariga "egachi", kichiklariga "singil" so'zlarini ishlatilishini alohida solishtirib o'tadi.

Asarda yana kishi nomlaridan tashqari narsa-buyum nomlari, joy nomlari, inson va hayvonlarning tana a'zolariga alohida to'xtalib o'tiladi. Otlarning yasalishi xususida -chi yasovchisining forsiy tilda yo'qligi, faqat turkiy tilga xosligi keltiriladi: "Yana bir adolari borki, ba'zi alfozning so'ngg'ida "-chi" ki, «chi» lafzidur, ortturlar, yo mansabning yo hunarning yo peshaning izhori uchun; forsiyda yo'qtur, balki alar ham turkcha ayturlar.

Mansabda andoqki, qo'rchi, va suvchi va xizonachi va kerak-yarog'chi va chavgonchi va nayzachi va shukurchi va yurtchi va shilonchi va axtachi yo'sunlug' ko'ptur".

Hozirgi o'zbek tilida -vul qo'shimchasi bilan yasalgan so'zlar bilinar0-bilinmas holatga kelganligi ma'lum. Lekin bu qo'shimcha o'zbek tilidagi eng qadimiy ot yasovchi qo'shimchalar sirasidandir. Navoiy bu qo'shimcha bilan yasalgan so'zlar xususida shunday fikr bildirib o'tadi: "Yana bir "vov" va "lom" ba'zi lafzg'a ilhoq qilib bir maxsus sifatqa tayin qilurki, salotinning xoh razm asbobi uchun va xoh bazm jihoti uchun mu'tabardur. Andoqki,

hirovul, qarovul va chingdovul va yankovul va so‘zivil va patovul va kitpovul va yasovul va bakovul va shig‘ovul va daqavul kim, alar mundin ulviydurlar”.

Bundan tashqari shaklan -vul affiksi bilan bog‘liq -l affiksi bilan yasalgan otlar haqida gapirib, quyidagi misollarni keltirib o‘tadi: qaxol, yasol, qabol, tunqol, birqol, to‘sqol va sevarg‘ol kabilar. Navoiy haqida A.Nurmonov ta’kidlab o‘tganidek: “U garchi so‘z yasalish strukturasi bo‘yicha fikr bildirmasa ham, lekin so‘z yasashga asos, yasovchi vosita, va yasalma tushunchalari haqida ma’lumatga ega bo‘lgan”.

O‘zbek tilshunosligi taraqqiyotining keyingi davrlarida o‘rta asrlarda hamda xonliklar hukronligida ham morfologiyaga oid qarashlar mavjud bo‘lib kelgan va ot so‘z turkumiga oid yana ko‘plab qaydlar qoldirilgan. Bunday qarashlarning o‘rganilishi bu so‘z turkumiga xos nazariyalarning shakllanishida tamal toshi vazifasini o‘tab bergan. Shu nuqtayi nazardan katta tadqiqotlar markazi sifatida yuqorida keltirilgan mutafakkirlarning fikr va g‘oyalar so‘z turkumlari nazariyasining vujudga kelishida xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аль-Фараби. Логические трактаты, философия. Алма-Ата: Наука, 1975, С: 109-116.
2. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. Танланган асарлар. Тошкет: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. 223 б.
3. Махмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девони луғотит турк). 3 жилдлик. 1-жилд. Таржимон ва нашрга тайёрловчи: Солиҳ Муталлибов. Т.: Фан, 1960.
4. Навоий, Алишер. Муҳокамат ул-луғатайн//Нашрга тайёрловчи Порсо Шамсиев//Асарлар. 15 томлик. Т.14. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1967.
5. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. Ўзбекистон, – Т.:2002. 91-б.